

## **ADABIYOTSHUNOSLIKDA XUDOYBERDI TO‘XTABOYEV IJODINING UMARALI NORMATOV TOMONIDAN BAHOLANISHI**

*Raximova Ro’shana O’lmasboy qizi*

*Alisher Navoiy nomidagi o’zbek tili va adabiyoti universiteti  
Adabiyotshunoslik nazariyasi mutaxassisligi 2-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Xudoyberdi To‘xtaboyev ijodining o‘zbek bolalar adabiyotidagi o‘rni va uning Umarali Normatov tomonidan adabiy baholanishi tahlil qilinadi. Normatovning ilmiy fikrlari asosida To‘xtaboyev asarlarining realizm va fantastika uyg‘unligi, qahramonlarning tabiiyligi, syujet qurilishi va tarbiyaviy ahamiyati yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Xudoyberdi To‘xtaboyev, Umarali Normatov, bolalar adabiyoti, realizm, fantastika, syujet, tarbiya.

**Annotation:** This article analyzes the role of Khudoyberdi To‘xtaboyev’s works in Uzbek children’s literature and their literary evaluation by Umarali Normatov. Based on Normatov’s scientific views, the article highlights the combination of realism and fantasy in To‘xtaboyev’s works, the naturalness of characters, plot construction, and the educational significance of his writings.

**Keywords:** Khudoyberdi To‘xtaboyev, Umarali Normatov, children’s literature, realism, fantasy, plot, education.

Xudoyberdi To‘xtaboyev o‘zbek bolalar adabiyotining eng yorqin namoyandalaridan biri bo‘lib, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab yosh avlod tarbiyasiga xizmat qiluvchi sermahsul asarlari bilan e’tirof etilgan yozuvchidir. Uning “Sariq devni minib”, “Sariq devning o’limi”, “Besh bolali yigitcha” kabi asarlari nafaqat bolalar, balki kattalar auditoriyasi orasida ham o‘ziga xos mavqega ega. To‘xtaboyevning ijodi orqaligina emas, balki yaratayotgan obrazlar, ulardagi axloqiy va ma’naviy mezonlar orqali ham bolalarning tafakkurini shakllantirish, ularni fikrleshga undash borasida muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli, uning badiiy merosi adabiyotshunoslar tomonidan hamon dolzarb tadqiqot mavzusi bo‘lib qolmoqda.

Adabiyotshunoslikda Xudoyberdi To‘xtaboyev ijodini chuqur tahlil qilishda bir qancha muhim jihatlar e’tiborga olinadi. Bular jumlasiga yozuvchining fantastik va realistik elementlarni uyg‘unlashtirishdagi mahorati, bolalar psixologiyasiga mos til uslubining qo’llanishi, shuningdek, jamiyatdagi muammolarni bolalar nigohi bilan tasvirlash kabi xususiyatlar kiradi. Ammo shu bilan birga, To‘xtaboyev asarlarini nazariy asoslarda chuqur o‘rganishga doir izlanishlar yetarli darajada tizimli olib borilmaganligini ham ta’kidlash kerak. Umarali Normatov — o‘zbek adabiy tanqidchiligining salmoqli vakillaridan biri bo‘lib, bolalar adabiyotini tahlil qilishga

alohida e'tibor qaratgan. Ayniqsa, u Xudoyberdi To'xtaboyev ijodini o'zining bir necha ilmiy maqolalarida atroflicha o'rgangan. Normatovning "Sarguzasht sardori" asari orqali To'xtaboyev qalamiga mansub badiiy qahramonlar, syujet va konfliktlar, badiiy tafakkur va g'oyaviy mazmun yuzasidan bergen baholari nafaqat yozuvchining adabiyotdagi o'rnini aniqlashga, balki bolalar adabiyotining rivojlanishidagi umumiy yo'nalishlarni anglashga ham xizmat qiladi.

Mazkur maqola Xudoyberdi To'xtaboyev ijodining adabiyotshunoslikda, xususan Umarali Normatov tomonidan berilgan baholar asosida tahlil qilinishiga bag'ishlanadi. Maqolaning dolzarbli shundaki, u yozuvchining adabiy merosini zamonaviy tanqidiy nigohda qayta ko'rib chiqish va uni adabiy jarayon bilan uyg'un holda o'rganishga harakat qiladi. Bu esa nafaqat tarixiy, balki metodologik nuqtayi nazardan ham muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Xudoyberdi To'xtaboyev ijodining eng asosiy badiiy xususiyatlaridan biri — bu sarguzasht va fantastika elementlarining ijtimoiy motivlar bilan uyg'unlashganligidir. Yozuvchi bolalar va o'smirlar dunyosini aks ettirishda real hayotiy muammolarni ertakona, sarguzashtli syujetlar orqali yoritgan. Masalan, "Sariq devni minib" asarida qahramonlarning orzu-umidlari, hayotga bo'lgan qarashlari sarguzasht yo'li bilan ifodalanadi, ammo bu voqealar orqali o'quvchiga halollik, do'stlik, mehnatsevarlik kabi insoniy fazilatlar singdiriladi. To'xtaboyev qahramonlari — real hayotdan olingan, xalq orasidan chiqqan, oddiy bolalar bo'lib, ular orqali yozuvchi jamiyatdagi turli muammolarga ishora qiladi. Bu qahramonlar xarakterining shakllanishi hayotiy voqealarga, ijtimoiy muhitga bog'langan bo'lib, o'quvchini o'ziga tortadi. Ular ideal emas, balki xatolari bilan birga tasvirlangan bo'lib, bu jihat ularning tabiiyligini ta'minlaydi. Jumladan, "Sehrli qalpoqcha", "Besh bolali yigitcha" kabi asarlarda qahramonlar hayotda duch keladigan sinovlar orqali shakllanadi, bu esa ularni yanada ishonchli va chuqur xarakterga ega qiladi. Yozuvchining tili o'ta xalqchil, sodda va samimiyyidir. U bolalarning kundalik nutqiga yaqin bo'lgan iboralar, hazil-mutoyiba, kinoya va o'xshatmalardan mohirona foydalanadi. Bu esa asarlarni yosh kitobxonlar uchun qiziqarli va tushunarli qiladi. Shuningdek, To'xtaboyev o'z asarlarida o'zbek xalq maqollari, iboralaridan keng foydalanib, milliy ruhni mustahkamlaydi. U nafaqat bolalar uchun, balki kattalar uchun ham muhim ijtimoiy va axloqiy saboqlarni sodda tilda yetkazadi. To'xtaboyevning bu jihatlari uning asarlarini nafaqat badiiy, balki pedagogik va tarbiyaviy nuqtayi nazardan ham muhim vosita sifatida baholash imkonini beradi. Shunday qilib, yozuvchining ijodi o'zbek adabiyotida bolalar ongini shakllantirish, ularni ijtimoiy muhitga tayyorlashda o'ziga xos maktab bo'lib xizmat qiladi.

O'zbek adabiyotshunosligida Umarali Normatov bolalar adabiyotini ilmiy-nazariy jihatdan chuqur tahlil qilgan olim sifatida e'tirof etiladi. U Xudoyberdi To'xtaboyev ijodiga berilgan baholarida, ayniqsa yozuvchining sarguzasht va fantastik

janrda yaratgan asarlariga alohida e'tibor qaratgan. Normatov o'zining "Sarguzasht sardori" nomli adabiy tanqidiy asarida To'xtaboyevni o'zbek bolalar adabiyotiga yangicha mazmun, o'zgacha ruh olib kirgan ijodkor sifatida baholaydi. Umarali Normatovning fikricha, To'xtaboyev asarlari bolalarning ongini faollashtirish, ularni mustaqil fikrlashga o'rgatish jihatidan katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Jumladan, u "Sariq devni minib" asarining syujet qurilishi, asosiy qahramon Hasanjonning maqsad sari intilishi va turli hayotiy to'siqlardan o'tish jarayonini real hayot bilan uyg'unlashtirilgan badiiy timsol sifatida tahlil qiladi. Normatov bu asarda mavjud bo'lgan satirik elementlar, humor va kinoya orqali yosh o'quvchiga ijtimoiy haqiqatni yetkazish yo'li haqida ham to'xtaladi.

Adabiyotshunos Umarali Normatov To'xtaboyev ijodining g'oyaviy mazmunini ham chuqur tahlil qiladi. Uning ta'kidlashicha, yozuvchi asarlarida nafaqat o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirishga, balki jamiyatdagi illatlar — dangasalik, loqaydlik, yolg'onchilik kabi illatlarga qarshi turishga da'vat mavjud. Bu jihatlar bolalar adabiyotida ijtimoiy mas'uliyat hissini shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, Normatov To'xtaboyev tilining obrazlilik darajasini yuqori baholaydi. U yozuvchining til uslubini bolalarga mos, sodda, ammo chuqur ma'noli deb hisoblaydi. Aynan shu badiiy va uslubiy yondashuv sababli To'xtaboyev asarlari ko'plab yosh o'quvchilar qalbiga yetib boradi va o'z o'rnini topadi. Normatov yozuvchining bu yondashuvini "bolalar bilan bolalarcha, lekin ularni kattalar kabi o'ylashga undovchi yozuvchi" sifatida tavsiflaydi. Umarali Normatovning bunday baholari Xudoyberdi To'xtaboyev ijodini adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan ilmiy tahlil qilishda asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Shu orqali To'xtaboyev nafaqat badiiy ijodkor sifatida, balki yosh avlod tarbiyasiga ijtimoiy va madaniy ta'sir ko'rsatgan adib sifatida ham o'rganiladi.

Xudoyberdi To'xtaboyev ijodi o'zbek bolalar adabiyotining rivojlanishida alohida o'rinn tutadi. Uning asarlarida sarguzasht, fantastika va ijtimoiy motivlar uyg'unligi, xalqchil til va uslub, hayotiy qahramonlar tasviri orqali o'quvchining ongiga chuqur ta'sir etuvchi badiiy-estetik vositalar mujassam. Aynan shu xususiyatlar uning ijodini nafaqat bolalar uchun, balki pedagogik, estetik va ijtimoiy nuqtayi nazaridan ham dolzarb qilishga xizmat qiladi. Umarali Normatovning To'xtaboyev asarlariga bergen baholari esa bu ijodiy merosni chuqurroq anglash va ilmiy asosda talqin etish uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Normatov yozuvchining badiiy mahoratini, obrazlarining psixologik chuqurligini, ijtimoiy g'oyalarning soddalik orqali ifodalanishini tahlil qilib, uni adabiyotshunoslikda yuksak darajada baholagan. Bugungi kunda ham To'xtaboyev ijodining dolzarbliги saqlanib qolmoqda. Uning asarlari mакtab ta'limida, bolalar tarbiyasida faol qo'llanilmoqda. Normatov tomonidan berilgan ilmiy izoh va tahlillar esa yosh adabiyotshunoslар uchun mustahkam nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Shu bois, To'xtaboyev ijodi va Normatov

tanqidiy merosini o‘rganish, ularni yangi davr adabiyoti va adabiy-estetik qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirib tahlil qilish bugungi adabiyotshunoslikning muhim vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar :**

1. Normatov U. Sarguzasht sardori. – Toshkent: O‘qituvchi, 1986.
2. Rasulov A. Fantastik adabiyot va bolalar tafakkuri. – Toshkent: Fan, 2019.
3. To‘xtaboyev X. Sariq devni minib. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyotmatbaa ijodiy uyi, 2014.
4. Karimov A. Zamonaviy bolalar adabiyotining badiiy xususiyatlari. – Toshkent: TDPU ilmiy nashrlari, 2020.
5. Tohirova M. O‘zbek bolalar adabiyoti va yosh kitobxon // Adabiyotshunoslik ilmiy jurnali, 2021, №2. – B. 45–52.
6. Saidov M. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Akademnashr, 2018.
7. Juraev S. XX asr o‘zbek bolalar adabiyotining taraqqiyot bosqichlari. – Qarshi: Nasaf, 2017.